

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15004307>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI FANINING AHAMIYATI

Shonazarova Ruxshona

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

M.A.Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti dotsenti, fiologiya fanlari nomzodi

E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitish ahamiyati va o‘quvchilarning savodxonligini shakllantirishdagi roli yoritilgan. Ona tilini samarali o‘qitish usullari , ijodiy yondashuvlarning ta’lim jarayoniga ta’siri tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** Ona tili, boshlang‘ich sinflar, savodxonlik, nutq rivoji, ta’lim jarayoni, ijodiy fikrlash, muloqot ko‘nikmalari.*

Аннотация: В данной статье раскрыта важность преподавания родного языка в начальных классах и его роль в формировании грамотности учащихся. Проанализированы эффективные методы обучения и творческий подход к образовательному процессу.

Ключевые слова: родной язык, начальные классы, грамотность, развитие речи, образовательный процесс, творческое мышление, коммуникативные навыки.

Annotation: This work highlights the importance of teaching the native language in primary grades and its role in developing students' literacy. Effective teaching methods and the impact of creative approaches on the learning process are analyzed.

Key words: native language, primary grades, literacy, speech development, educational process, creative thinking, communication skills.

Boshlang‘ich sinflar uchun eng kerakli fanlardan biri bu ona tilidir. Ona tili fani o‘quvchilarning o‘qish va yozish ko‘nikmalarini, fikrini to‘g‘ri va aniq ifodalashni, ijodiy fikrlashni, o‘zbek tiliga hurmat va izzat bilan qarashni rivojlantiradi. Ona tili fani birinchi sinfdan to o‘n birinchi sinfgacha o‘tiladigan asosiy fandir. Bu fan o‘quvchilarning o‘g‘zaki va yozma nutqini shakllantiradi. Bolalar dars jarayonida she’rlar, maqollar, tez aytishlar, ertaklar, turli xil hikoyalar o‘qish orqali til boyligini oshiradilar. Maktabga ilk qadamlarini qo‘ygan o‘quvchilar o‘qish, yozish, fikrlash va muloqot qilishni o‘rganib asta-sekin rivojlanadilar. Aynan ona tili darslari bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Avval ular harflarning shakli, talaffuzi va tovushini o‘rganishadi. So‘ngra bo‘g‘inlab so‘zlarni o‘qish, yozish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishadi. Bu bosqichda savod chiqarish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. O‘quv jarayoni oddiy va tushunarli mashqlardan boshlanib, asta-sekin murakkablashadi. Ona tili fanida o‘quvchilar ertak va hikoyalar tuzishadi va ularni daftarlariga husnixat ila ko‘chirishadi. Bu mashqlar esa o‘quvchilarning tasavvur doirasini kengaytirib, mustaqil fikrlash kabi ko‘nikmalarini shakllantiradi. Yana o‘quvchilar o‘z ona tilining boyligi va naqadar go‘zalligini aynan shu darsda anglab yetadilar. Turli xil maqollar, matallar, xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish orqali milliy madaniyatga bo‘lgan qiziqish ortadi, milliy g‘urur shakllanadi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish samarali foyda beradi. Masalan, o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirishda so‘z topish o‘yinlaridan foydalanish kerak. Yozuv taxtasiga turli xil rasmlar osib, ularning nomlarini topish yoki kim tez kitobni o‘qish kabi mashqlar bajarish lozim. Yana o‘quvchilarga ta’lim-tarbiyaga oid mutfilmlar, ertaklar elektron doska orqali

ko‘rsatilishi zarur. Bunday vositalar orqali o‘quvchilar so‘zlarni oson va tez yodlab oladilar, ona tilini yanada chuqurroq o‘rganadilar. Jamoa bo‘lib ishslash ham yordam beradi. Guruhda hikoya yaratish, muammoli savollarga jamoaviy javob izlash, rolli suhbatlar, bahs munozaralar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiradi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili fani o‘quvchilarning ta’lim olish jarayonida muhim ro‘l o‘ynaydi. Chunki:

1. Nutq va tafakkurni rivojlantirish – Ona tili bolalarning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirishga xizmat qiladi. To‘g‘ri talaffuz, fikrni aniq ifodalash va savodxonlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.
2. Savodxonlik asoslarini shakllantirish – Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar o‘qish va yozish ko‘nikmalarini egallaydi. Bu esa keyingi ta’lim bosqichlarida barcha fanlarni o‘zlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.
3. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish – Ona tili mashg‘ulotlari orqali bolalar jumlalarni mantiqiy tuzish, matnni tushunish va tahlil qilish, muammolarni hal qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.
4. Milliy qadriyat va madaniyatni singdirish – Ona tili darslarida xalq og‘zaki ijodi, maqollar, ertaklar va she’rlar o‘rganiladi. Bu esa o‘quvchilarga milliy merosni anglash va qadrlashni o‘rgatadi.
5. Boshqa fanlarni o‘rganish uchun poydevor – Ona tilini yaxshi bilgan o‘quvchilar boshqa fanlarni ham oson o‘zlashtiradi. Chunki matematik masalalarni tushunish, tabiatshunoslikdagi tushunchalarni o‘qish va anglash aynan til bilish darajasiga bog‘liq. Ona tili barcha fanlarni o‘zlashtirishning kaliti hisoblanadi. Agar o‘quvchi ona tilini yaxshi bilsa, u boshqa fanlarni tez va oson o‘zlashtiradi. Shu sababli, boshlang‘ich sinflarda ona tiliga alohida e’tibor qaratish zarur.

XULOSA:

Boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitish o‘quvchilarning savodxonligini shakllantirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish hamda boshqa fanlarni o‘zlashtirishga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili bolalarning o‘z

fikrini aniq va ravon ifodalashga yordam beradi, ularning nutqiy madaniyatini rivojlantiradi va milliy qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladi. Ona tilini samarali o‘qitish uchun zamonaviy pedagogik metodlardan, interfaol usullardan va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish zarur. O‘quvchilarning qiziqishini oshirish maqsadida o‘yinli mashg‘ulotlar, badiiy matnlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish samarali bo‘ladi. Shunday ekan, boshlang‘ich sinflarda ona tili faniga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish, o‘qitish sifatini oshirish va bolalar uchun qiziqarli darslar tashkil etish ta’lim samaradorligini oshirishda katta rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo‘ldoshev N., Xolbekova D."Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi" - Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2018.
2. Axmedova M. "Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish texnologiyalari"- Toshkent: Fan va texnologiya 2020.
3. Qosimova M. "Nutqni o‘sirish darslari va uning boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tasiri"- Toshkent: Sharq 2021
4. G‘ofurov U., Yo‘ldosheva M . "Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish nazariyasi va amaliyoti"- Toshkent :O‘qituvchi, 2022.